Yuqoridagi mnemonik texnologiyalarni o'rganish natijasida, ularni tarixda qo'llab chiqar ekanmiz, eng samarali usul deb, "Aql xaritasi" va assotsiatsiya usulini olasak bo'ladi. Bu talaba o'quvchilar uchun ham foydali hisoblanadi. Chunki o'quvchilarda sinab ko'rish natijasida darsga qiziqmaydigan o'quvchilar ham qiziqishdi va har darsda so'raganimizda ular javob berishga harakat qilishadi. Mnemonik mashqlar ularga faqat eslab qolish uchungina emas, balki tafakkurlarini o'stiradi, tanqidiy fikr bera olish qobiliyatini shakllantiradi va o'zlashtirish qobiliyatlarini yaxshilaydi. Ushbu usul va texnikalar o'quvchilarga umrbod esda saqlash imkonini beradi.

REFERENCES

1. Петровский А. Ведение в психологию: учебник. М., 1996. 496 с.
2. Maguire, E. Routes to remembering: the brains behind superior memory. 2003.
3. Mur. A A slice of pi an exploratory neuroimaging study of digit encoding and retrieval in a superior memorist. 2009.
4. Rahmonov Sh. Mukammal xotira. Toshkent. Akademnashr. 2022. -368 с.
5. Soz yodlash sirlari. Sh.Raxmonov, I. Sattibayev.-Toshkent: Akademnashr, 2021.-128 b.
6. Abduraimova Sh., Muydinov S. Mnemonika (Yod olish san'ati) Toshkent, Akademnashr. 2020. – 128.
7. YATES, Frances A. Gedächtnis und erinnern: Mnemonik von Aristoteles bis Shakespeare, Edition: 6, Akademie Verlag, 1999.
8. Sa'Dullayeva, M. H. (2023). RAQAMLI TARIX MUKAMMAL XOTIRA ASOSI SIFATIDA. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 73-75.



XIVA XONLIGIDA QONG'IROTLAR DAVRIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR

Bobomurod Faxriddin o'g'li Abdishukurov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

abdishukurovbobomurod2002@gamil.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelgan vaqti yuz bergan siyosiy jarayonlar, xonlikning boshqa xonliklar bilan aloqasi, Shuningdek, xonlikning davlat tuzumi, ta'lim tizimi qanday kechganligi haqida tahliliy fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyati darg'alari, qizil saltanat ilhomchilari, birinchi o'zbek irrigatori, qizlar maktabi, soxta xon, yovmutlar, dasturxonchi, sharmandali sulh, tarixiy fojia.

ABSTRACT

This article provides an analytical view of the political processes that took place in the Khiva Khanate at the time of the coming to power of the dynasty of bells, the connection of the Khanate with other khanates, as well as the state system of the Khanate, how the educational system went.

Keywords: Lessons of spirituality, inspirations from the red Kingdom, the first Uzbek irrigator, a girls school, a fake Khan, yovmuts, a tablecloth, a shameful truce, a historical tragedy;

KIRISH

Inson ma'naviyatida tarix ilmining axamiyati beqiyosdir. Albatta har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, xayotiy qadriyatlaridan ayri xolda tasavvur etib bo'lmaydi. Yuqorida keltirilganidek, bugungi kunda O'zbekiston davlatchilik tarixi va uning muhim taraqqiyot bosqichlari nihoyatda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tariximiz haqida quyidagilarni aytadi — "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam tariximiz haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi, katta ma'naviyat olib ketishi zarur"[1]. Xiva xonligidagi siyosiy vaziyat hukmron tabaqalarning urushlari va qabilalar o'rtasidagi mojarolarni to'xtatishga qodir bo'lgan kuchli



markaziy hokimiyatning barpo etilishini taqozo etardi. Bunday hokimiyatni barpo etishga qodir kuch sifatida maydonga o'zbeklarning qo'ng'iroq qabilasi chiqdi. Bu zaruriyatning natijasi o'laroq, XVIII asrning 60-yillaridan boshlab, Xiva xonligida hokimiyatni qo'ng'iroq qabilasi boshliqlari asta-sekin o'z qo'llariga ola boshladilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqola interpretatsiya, induksiya, deduksiya, determinizm, tahliliy, qiyosiy va tizimli tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Mavzuni tadqiq qilishda mamlakatimizda olib borilgan keng islohotlar, tarixni xolis o'rganishga qaratilgan huquqiy asoslardan keng foydalanildi. Shuningdek ushbu tadqiq mavzusi bo'yicha mustaqillik davrida bir qator o'zbek olimlari tomonidan o'rganilgan. Xususan, bu borada N.Polvonov va O.Qo'shjonov, S.Hasanov, A.Abdurasulov, D.Bobojonov va M.Abdurasulov, Q.Munirov, X. Ziyoev, Davlatyor Raxim va Shohnazar Matrasul, Mulla Olim Maxdum Hojining asarlari alohida ahamiyatga ega. O.Qo'shjonov va N.Polvonovning — Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar asarida, asosan, Xiva xonligidagi jadid harakatiga, uning asosida tashkil topgan ta'lim tizimiga qaratiladi. S.Hasanovning — Xorazm ma'naviyati darg'alari nomli asarida esa Xorazmda yetishib chiqqan allomalar va ularning fan sohasiga qanday yangiliklar qo'shganligi keltirib o'tiladi. A.Abdurasulovning — Xiva asarida Xiva xonligidagi ichki siyosat masalalari, jumladan, madrasalar qatori, ulardagi ta'lim tizimi, adabiy muhit yoritib berilgan. Xususan, ta'lim tizimiga oid quyidagi ma'lumotni uchratishimiz mumkin: — Xivadagi rus-tuzem maktabining asosiy maqsadi mahalliy millat bolalariga rus tilini o'rgatib, mahalliy tarjimonlar tayyorlashdan iborat edi. Chunki hali xonlikda rus tilida ish yuritish, kelgan maktublarni o'qish va tarjima qilish, nomalar bitish sohasida qiyinchiliklar tug'ilayotgan edi. Holbuki, Petro Aleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l) shahrida ochilgan rus-tuzem maktabini bu davrda bir qancha xivalik yoshlar, jumladan, Asfandiyor to'ra, Muhammad Aminaddin Muhammad hoji Aminaddin o'g'li 1892-1897 yillarda Fransiyaning Tuluza shahridan suv xo'jaligi kollejida ta'lim olgan zamonaviy ma'lumotli birinchi o'zbek irrigatori edi. Yana shu kitobda quyidagi xabar keladi: — Feruz farmoniga muvofiq 1904 yilning 10-noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayin Qo'shaev degan Turkiyadan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi. Mahalliy xalq vakillarining mazkur maktabga qiziqishi ortib, dekabr oyiga kelib, bu maktab o'quvchilarinsh 45 tasi mahalliy millat farzandlari edilar. Husayin Qo'shaev 1906-1907 o'quv yilida xonlikdagi ilg'or ma'rifatparvar kishilarning, eng avvalo, otionalarning orzu istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabi tashkil etdi. Bu muhim voqeadan xursand bo'lgan Feruz Urganchga borib, mazkur maktab ishi bilan tanishdi va Husayin



Qo'shaevning boshlagan foydali tadbiri uchun uni qo'llab-quvvatlab, boshoyoq sarpo kiygizdi va xazina hisobidan maktabga yordam berib turishga qaror qildi. Q.Munirovning — Xorazmda tarixnavislik asarida Xiva xonligidagi faqat tarixiy asarlarga e'tiborini qaratadi. Muallif xonlikda tarix maktabiga xon Abulg'oziy asos solganini ham eslatib o'tadi.

Yirik zodagonlar va ruhoniylar tabaqasining madadiga tayangan qo'ng'iroq qabilasining yo'l boshchisi Muhammad Amin 1761-yilda inoqlik lavozimiga ko'tarilgan. U turkmanlarning yovmut va chovduz qabilalariga qarshi kurash olib borgan. Biroq u dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Buxoroga Doniyolbiy otaliq yoniga ketadi. Turkman qabilalari Xorazmni egallab, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat, Shohobod shaharlarini xonavayron qiladilar. Ocharchilik va vabo tarqalib, o'zbeklar Orol va Buxoroga ketishga majbur bo'ladilar. 1770-yilda Muhammad Amin inoq Buxorodan qaytib kelib, yovmutlarga qarshi kurashni uyushtiradi va ularni Xorazmdan haydab chiqaradi. Muhammad Amin mahalliy beklarni ham bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Hukmronligining so'nggi yillarida o'z qabilasining faol qatlamiga, savdogarlar va ruhoniylar madadiga tayangan hamda turli turkman qabilalari o'rtasidagi o'zaro nizolardan oqilona foydalana olgan Muhammad Amin mamlakatda nisbatan siyosiy osoyishtalik vaziyatini yaratishga erishdi. Bularning barchasi mamlakat iqtisodining ko'tarilishini ta'minlaydi. Jon saqlash uchun o'zga yurtlarga qochib ketgan fuqarolar yana qaytib kela boshladilar. Avaz Muhammad inoq davrida Xiva xonligi iqtisodiy jihatdan ancha mustahkamlandi. Muhammad Amin ham, uning o'g'li Avaz (1790-1804) ham davlat hokimiyatini inoq unvonida boshqarganlar [2]. Qozoqchigiz biylaridan soxta xonlar chaqirilib turilgan. Hokimiyat amalda inoq va maxsus kengash tomonidan boshqarilgan. Kengash tarkibiga qo'shbegi, mehnat, vazir va otaliqlar kirgan. Inoq va kengash soxta xon nomidan ish yuritgan. Faqat Avazning o'g'li Eltuzar (1804-1806) hukmronligi davrida chetdan soxta xon chaqirish to'xtatildi. Nafaqat to'xtatildi, ayni paytda 1804-yildayoq chetdan chaqirilgan soxta xon Abulg'ozini taxtdan tushirib, o'zini xon deb e'lon qildi. Shu tariqa, qo'ng'iroqlar sulolasi Xiva xonligi taxtini rasman egalladi. Bu sulola 1920-yilga qadar Xiva xonligini idora qildi.

NATIJALAR

Xiva xonligida qo'ng'iroq sulolasi rasmiy ravishda 1804-yildan e'tiboran boshlangan. Shu yili Muhammad Aminning nabirasi Eltuzar xon unvonini qabul qiladi. Yangi xon 1806-yilda Buxoroga qarshi olib borilgan urushda halok bo'ladi. Uning o'rniga ukasi va vorisi Muhammad Rahim (1806-1825) xonlikning unvoniga egalik qiladi. Muhammad Rahim 1811-yilda orolliklarni o'ziga taslim qiladi. 1822-yilda esa Marv va undagi



turkmanlar ustidan hukmronlik o‘rnatadi. Xiva xonligi ayniqsa Muhammad Rahimning o‘g‘li Olloqulixon (1825-1846) davrida o‘z hududlarini ancha kengaytiradi. Xonlikning hududlari Sirdaryoning Orol dengizigacha quyiladigan joyidan Turkmaniston hududidagi Kushkagacha cho‘zilib ketgandi. 1846-1855-yillarda xonlik qilgan Muhammad Amin (Madamin) va Abdullaxon (1855-1864) o‘z xonliklarining faoliyatlarini turkmanlarga qarshi to‘xtovsiz kurashlarda o‘tkazadilar va shu urushlarda halokatga uchraydilar. Sayid Muhammad Rahimxon (Feruz) davri (1864-1910) da Xiva xonligi Rossiya bosqinchi to‘dalariga qarshi kurash olib borolmaydi va g‘oyatda kuchli dushman bilan Gandimiyon – sharmandali sulh bitimini imzo chekishga majbur bo‘ladi. Xiva o‘z mustaqilligini yo‘qotadi va Rossiyaga qaram bir mamalakatga aylanadi. Ayniqsa Xivaning so‘nggi ikki xoni Isfandiyorxon (1910-1918) va Sayid Abdullaxon (1918-1920) davrida xalq ommasi g‘oyatda og‘ir qismatli va nihoyatda bir-biriga qarama-qarshi onlarni o‘z boshidan kechirmoqda edi [3]. Eng muhimi ana shu ziddiyatli bu davr va zamon fojiasini tushunib yeta oladigan va unga monand yo‘l tanlaydigan siyosiy va g‘oyaviy yetuk xalq hali shakklanmagan edi. Bu esa o‘lkaning tarixiy fojiasi edi. Bundan suronli va bo‘ronli milliy-ozodlik kurashi yillarida qizil saltanat ilhomchilari – bolsheviklar foydalanib qoladilar.

MUHOKAMA

Xiva xonligi xon tomonidan saroy amaldorlari yordamida boshqariladigan, yakka hokimchilikka asoslangan davlat bo‘lib, uning boshqaruv tizimi Buxoro va Qo‘qon xonliklaridan deyarli farq qilmagan. Xonlikdagi eng yuqori unvon xon bo‘lib, u siyosiy, harbiy va diniy hokimiyatga ega edi. Buxoro va Qo‘qon xonligidan farqli ravishda XIX asr boshlariga kelib xon huzurida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi Kengash (Devon) bor edi. Eng yuqori lavozimdagi amaldorlar a‘zo bo‘lgan bu kengashning vakolatlari cheklangan, barcha qarorlar amalda xon tomonidan qabul qilingan bo‘lsa-da, lekin saroy ayonlarining, qabila boshliqlarining, mahalliy hokimlarning davlat boshqaruvidagi o‘rnini e‘tirof etish zarur [4]. Xonlikdagi barcha mansab va unvonlarni 3 toifaga: harbiy-ma‘muriy, harbiy, diniy amallarga bo‘lish mumkin. Xiva xonligida davlat tili o‘zbek tili bo‘lib, Buxoro va Qo‘qon davlatlaridan farqli ravishda, bu yerda ikki tillilik hukmron emas edi. Barcha farmonlar, davlat ishlari, hujjatlar o‘zbek tilida yozilardi. Xonning o‘zi raislik qilgan Oliy kengash davlatning qonun chiqaruvchi, ma‘muriy va sud organi vazifasini bajarar hamda unda eng nufuzli amaldorlar qatnashardilar. Ular orasida devonbegi, qushbegi, mehtardan tashqari naqib, shayxulislom, mutavalli, mirob, qozi, farmonchi, darg‘a, shig‘ovul, dasturxonchi, arbob, miroxo‘r, to‘shakchi, oqog‘o va boshqa amaldorlar bor edi [5]. Kengash qatnashchilari



haftaning juma kunlari ko‘rinishxonada to‘planardilar. Ularga osh tortiladigan keyin, maslahat kengashi quyuq ziyofat tarzida, ba‘zan kech tundan erta tonggacha davom etardi.

XULOSA

Mazkur maqolada Qo‘ng‘irotlarning hukmronligi davrida davlatning tashqi va ichki siyosatiga doir qator yangi fikrlar o‘rganildi. O‘rta Osiyoda shakllangan uchta mustaqil - Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari tarixiga bag‘ishlab alohida-alohida asarlar yaratilgan edi. Bu tarixiy asarlar mazkur xonliklarning tarixini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladilar. Xiva xoni va tarixnavisi Abulg‘oziy tomonidan tarixiy asarlar yozish an‘anasi, keyinchalik atoqli tarixnavislar va ajoyib shoirlar Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy va Muhammad Yusuf Bayoniy tomonidan davom ettirilgan edi. Xorazm tarixi bo‘yicha yozilgan hamma tarixiy asarlarni o‘zbek tilida ijod etgan mazkur tarixnavislar bir-birlarining ishini davom ettirib, uzoq davrni o‘z ichiga qamrab olgan Xiva xonligi tarixini o‘rganishda ajoyib ma‘lumotlarga boy qator qimmatli tarixiy asarlar yaratildi. Shuni ta‘kidlab o‘tish zarurki, bu qo‘lyozma tarixiy asarlar o‘z davrining ilg‘or fikrli kishilari tomonidan yozilgan bo‘lsa-da, o‘sha davrdagi hukmdorlar ra‘yidan o‘tolmasdan, ularning manfaatlariga mos qilib yozilgan edi. Chunki mualliflar shu tarzda yozishga majbur edilar. Bu asarlarda qo‘shni xalqlar sha‘niga aytilgan «tug‘yonkor», «isyonkor», «mufsid» kabi noloyiq iboralarni ham uchratamiz. O‘z davri va muhitining ta‘siri tufayli mavjud kamchiliklarga qaramay, Xorazmda tasnif etilgan mazkur tarixiy asarlar, Xiva xonligining XVII — XIX va XX asr boshlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganishda aniq ma‘lumot beruvchi asosiy manba bo‘lib xizmat qiladilar. Xonlikning iqtisodiy hayotida feodal yer egaligi, sug‘orish ishlari va yangi yerlarni o‘zlashtirish va soliq masalasi asosiy masalalardan edi. Bu masalalar bo‘yicha ham mazkur tarixnavislarning asarlarida ancha ma‘lumotlar keltirilgan. Xonlikning iqtisodiy hayotida asosiy masalalardan biri bo‘lgan soliq masalasiga kelsak, xivalik tarixchilar o‘z asarlarida voqealarni bayon etar ekanlar, xonlik hududida bo‘lgan shaharlar va qishloqlarga kimlarning soliq yig‘ish uchun borganligi, qaysi davrlarda qaysi xalqlarning Xiva xonligiga soliq to‘laganliklari haqida ham ma‘lumotlar keltirib o‘tganlar. Savdogarlardan, shuningdek, Xiva xonligi hududidan o‘tgan Buxoro xonligiga tegishli savdogarlardan ham olingan soliqlar haqida ham ba‘zi ma‘lumotlarni uchratamiz. XVII — XIX asrlarda va XX asr boshlarida Xiva xonligida qurilish ishlari bo‘yicha ham ma‘lum ishlar amalga oshirilgan. Madrasalar, masjidlar, qal‘alar, bog‘lar, ko‘priklar va boshqa shu kabi inshootlar qurilgan. Qo‘ng‘irotlar hukmronligi XX asr boshlarida mustabid sovet davlati xokimiyatining



oʻrnatilishi bilan inqirozga uchradi. Lekin ikki asrdan ortiq davrda hukmronlik qilgan bu sulola davrida Xiva xonligi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniyat va fan sohalarida yetakchi davlat darajasiga koʻtarildi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutq. -T.: Oʻzbekiston, 2016. 13-b
2. Oʻzbekiston davlat va mahalliy boshqaruv tarixi: Ikkinchi kitob // Bahodir Eshov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 158-165 betlar.
3. Vatan tarixi (XVI-XIX asr boshlari): Ikkinchi kitob // R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, Oʻ.Ubaydullayev. – Toshkent: SHARQ, 2010. – 97-98 betlar.
4. Oʻzbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I-qism // A.Sagdullayev, B.Aminov, Oʻ.Mavlonov, N.Norkulov. – T.: “Akademiya” 2000. – 241-243 betlar.
5. Vohidov Sh, Xoliqova R. Markaziy Osiyo davlatlarida boshqaruv tarixidan. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 64-80 betlar.



ABDULLA AVLONIY- JADIDCHILIK HARAKATINING YORQIN VAKILI FAOLIYATIGA NAZAR.

Qunduz Ikromboy qizi Islamova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tarix yoʻnalishi 2 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jadidchilik faoliyatining vujudga kelish tarixi, jadidchilikning diyorimizga kirib kelishi, uning yorqin vakillari, yurtimiz tarixida tutgan oʻrni, jadidchilikning bebaho merosi xususan Abdulla Avloniyning faoliyatiga alohida toʻxtalib oʻtiladi. Abdulla Avloniyning pedagogika sohasida amalga oshirgan ishlari, yozgan asarlarining ahamiyat keltirib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar. Jadidchilik, pedagogika, metod, usuli jadid maktabi, tarbiya, axloq, "Turkiy Guliston yoxud axloq", yaxshi xulq, fikr tarbiyasi

АННОТАЦИЯ

В данной статье будет освещена история деятельности джадидизма, внедрение джадидизма в нашу страну, его яркие представители, его место в истории нашей страны, бесценное наследие джадидизма, особенно творчество Абдуллы Авлони. Отмечается значение работ Абдуллы Авлани в области педагогики и его сочинений.

Ключевые слова. Джадидизм, педагогика, метод, метод Джадидская школа, образование, мораль, «турецкий Гулистан или мораль», хорошие манеры, воспитание мысл

ABSTRACT

In this article, the history of the activity of jadidism, the introduction of jadidism to our country, its bright representatives, its place in the history of our country, the priceless heritage of jadidism, especially the work of Abdulla Avloni, will be highlighted. The importance of Abdulla Awlani's works in the field of pedagogy and his writings is mentioned.

Keywords. Jadidism, pedagogy, method, method Jadid school, education, morality, "Turkish Gulistan or morality", good manners, thought education.

KIRISH

Yurtimiz tarixida maʼrifatparvar, ilmga chanqoq va kelajak avlodni ham ilmli qilib voyaga yetkazishni niyat qilgan ziyolilar salmogʻi koʻp. Ular oʻzlari eng avvalo ilm olib, soʻngra atrofidagi



insonlarga ayniqsa, bolalarga ziyo tarqatish, ta'lim jarayonlarini takomillashtirib, mukammal darsliklar yaratish ishtiyoqida bo'ldilar. Ayniqsa vatanimizga bostirib kelishgan va boyluklarini talon-taroj qilishayotgan bir davrda yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatib, zamonasining eng ilg'or bilimlarini egallashga bo'lgan da'vatlari bilan yurtimiz tarixida o'chmas iz qoldirdilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon va diyorumiz hayotida ro'y berayotgan siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar ziyolilar qatlamini befarq qoldirmadi. Ular bir g'oya ostida birlashib, xalqimizning ma'naviy boyluklarini tiklash, zamonaviy ta'lim dasturlarini qabul qilib, ta'lim jarayonlariga tatbiq etish ishlarini boshlab berishdi. Bu harakat namoyondalari jadidchilik harakati deb tarixga kirdilar. "Jadidchilik"ning asosida jadid so'zi yotadi. "Jadid"ning ma'nosi "yangi" demakdir [1]. Bunda faqat yangi texnologiya yoki yangiliklar tarafdorlarigina bo'lib qolmasdan, balki yangicha fikrlash, yangicha metodlardan foydalangan holda ta'limni takomillashtirish, xalqimizning dunyoqarashini kengaytirish yo'lida turli davriy nashrlarni bosib chiqarish, ijtimoiy muommolarni o'zida aks ettirgan o'tkir syujetli asarlar va sahna ko'rinishlari, jahon adabiyotining nodir durdonalarini tarjima qilish kabi harakatlarni ham o'zida mujassam etadi.

Jadidchilik g'oyasining ilk namoyondasi Ismoil Gasparali bo'lib, Boqchasaroyda yangi usul maktabini tashkil etib bu yo'nalish asoschisiga aylanadi. U o'z fikr-mulohazalarini ommaga muntazam yetkazib turish maqsadida "Tarjimon" gazetasini chiqara boshlaydi. Bu gazeta Rossiya Imperiyasida muntazam ravishda 20 yil davomida bosib chiqarilgan musulmon gazetasi hisoblanadi. Ismoil Gasparalining Buxoroga tashrifi juda muhim qadam bo'lib, bunda amir Abdulahadxon bilan uchrashib o'z g'oyalarini amalda tatbiq etishga, yangi usul maktabini ochishga muvofaq bo'ladi. Shu tariqa yurtimiz hududida ham ilk yangi usul maktablari ochila boshladi. Bu esa qaysidir ma'noda jadidchilik harakatining yanada kengroq yoyilishining sabablaridan biriga aylandi. Shu davrda jadidchilik vakillarining eng salmoqli amaliy ishlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, I'shoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoi insonlarning o'z shaxsiy mafaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan also o'chmaydi[2]. Amalda ham Birinchi Prezidentimiz jadidlar merosini o'rganish, amalda qo'llash choralarini ishlab chiqish bo'yicha salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Chunki har bir



xalqning ma'naviy merosi uning bevosita kelajagiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Jadidlar merosini o'rganish borasidagi ishlarga prezedentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bosh bo'lib, bugungi kunda davlat darajasida e'tibor bermoqdalar. Xususan jadidlarning fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Bebudiyning "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur" degan so'zlari bugun ham dolzarb ahamiyatga ega[3]. Ushbu fikrdan anglashiniladiki, jadidlarimiz bir qancha muddat o'rganilmay qolgan aniq va tabiiy fanlarni ham ta'lim tizimiga kiritish, yosh avlodlarga o'rgatish tarafdorlari bo'lishgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har bir jadidchilik namoyondasi bu borada o'z qarashlari bo'lib, umumiy maqsadga borish yo'lida turli yo'llar va vositalardan foydalanishga harakat qilishgan. Jadidchilik harakatining eng yirik namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy bo'lib, o'zbek adabiyoti, noshirlik ishi, yangi usul maktablarini ochish va ularga darsliklar yozish, pedagogik metodlarni ilmiy tadqiq etish va amalda qo'llash, teatr truppasida asarlarni sahnalashtirish, chet tillaridan tarjimalarni amalga oshirish kabi zalvorli ishlarni bajarib tariximizda o'chmas iz qoldirgan. Abdulla Avloniy 1878-yili 12-iyulda Toshkent shahrida tug'ilgan. Otasi hunarmand bo'lib, o'g'lining ta'lim olishiga katta e'tibor bergan. Dastlabki ta'limni O'qchidagi eski maktabda olgan. Abdulla Avloniy 1904-yilda Mirobodda usuli jadid maktabini ochadi. E'tiborli jihatlaridan biri shuki, maktabni qurishda, jihozlar bilan ta'minlashda o'zi bevosita ishtirok etib ustachilik ham qiladi. Maktabni davr talablari mos holda jihozlash, zamonaviy darsliklar va o'quv qurollari bilan ta'minlashga e'tibor beradi. U birinchilardan bo'lib maktabda fizika, kimyo, geografiya, astronomiya kabi fanlarni o'qitishni yo'lga qo'yadi. Chunki bu kabi fanlarni o'zlashtirmasdan turib yetuk kadr, mahoratli pedagog bo'lib yetisha olish mumkin emasligini anglagan edi.

Abdulla Avloniy maktab o'quvchilari uchun "Birinchi Muallim", "Ikkinchi Muallim", "Tarix", "Turkiy Guliston yoki axloq" kabi zamonasi uchun hodisa bo'lgan darsliklar yozgan [4]. Bu darsliklarda adib ta'lim va tarbiya borasidagi o'z fikr-mulohazalarini, pedagogik usullarni yoritib bergan. Mazkur asarlardan keng miqiyosida foydalanilgan bo'lib ilgari surilgan g'oya va fiklar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Abdulla Avloniy axloq haqida xulqlar majmui deb fikr bildiradi. Adib qarashlar bo'yicha xulq ezgulik yoki razillikning bir insonda mujassamlashib, namoyon bo'lishidir. Ushbu sifatlar insonda o'z-o'zidan shakillanmaydi. Kishilar yomon xulqli bo'lib tug'ulmaydi, balki ularni muayyan sharoit yomon qiladi deb hisoblaydi. Demak hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Tarbiya yo hayot, yo momot, yo



najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir [5]. Bu fikrlar zamon va makon tanlamaydigan g'oyatda dolzarb masaladir.

Azaldan axloq, tarbiya haqida faylasuflar, davlat arboblari, adiblar fikr yuritishib, bahslashib kelishadi. Xususan Sa'diy Sheroziy o'zining "Guliston" va "Bo'ston" asarlarida sharqona axloq haqida juda zalvorli mavzularni qamrab olgan. Abdulla Avloniy bu asarlarning katta ta'siri ostida "Turkiy Guliston yohud axloq" nomli kitob yozadi. Adib ushbu asarning ma'suliyati haqida yozar ekan, uning naqadar mushkul va og'ir vazifa ekanligini, lekin uzoq vaqt davomida o'ylab ushbu qarorga kelganligini ta'kidlab o'tadi. U bu shunday yozadi "Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilmish mukammal "Axloq" kitobining yo'qligi afrodi millatning shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig'i, o'zum muallimlar jumlasidan o'ldug'umdan, manga ham ochiq ma'lum o'ldi" [6]. Ya'ni adibni shu paytda o'z tilimiz, milliy mentalitetimiz va ta'lim tizimimizga mos bo'lgan axloq haqida asar yo'qligidan qanchalar achinishni his qilishi va o'z oldiga axloq haqida asar yozmoqlikni muqaddas vazifa etib tayinlashini qayd etib o'tadi. Turkiy guliston yohud axloq asari bir nechta qismlarga bo'lingan bo'lib, har bir qism ma'lum bir mavzuga bag'ishlanadi. "Axloq", "Yaxshi xulq, yomon xulq", "Tarbiya", "Badan tarbiyasi", "Fikr tarbiyasi", "Fatonat", "Diyonat", "Riyozat" va boshqa ko'plab qismlari inson xulqining ma'lum bir tomonini o'zida ifoda etadi. Xususan, "Fikr tarbiyasi" qismida shunday satrlar keltiriladi "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelingan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur" [7].

Abdulla Avloniy muallimlarning vazifalari muqaddas burch ekanligini, ta'lim va tarbiya orasida ozgina farq bo'lsada, aslida bir-birlarini to'ldirib turishliklarini aytib o'tadi. Bu kabi fikr-mulohazalar hozirda yanada o'z ahamiyatini oshirganligiga guvoh bo'lib turibmiz. asar 1913-yilda Toshkentda Ilin bosmaxonasida chop etilgan. 1917-yili ikkinchi marotaba chop etilishiga oshib borayotgan ehtiyoj sabab bo'ladi. bu ikkala nusxalar hajm jihatidan bir xil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Uchinchi nashri 1967-yilda "O'qtuvchi" nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Bu nashrning oldigilaridan farqi diniy iboralar tushirib qoldirilganligidadir. Mustaqillik sharofati bilan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari mukammal nashr etilishiga erishdik. Asarda to'liq hajm bilan birgalikda izohli lug'at ham taqdim etiladi. Bu esa asrni yanada chuqur o'ranishimiz va bugungi kun talablarini to'g'ri anglagan holda amaliyotga tatbiq etishda katta rol o'ynaydi.

XULOSA

Abdulla Avloniy faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz o'z davrining eng ilg'or ilmlar egasi, zamonaviy ta'limning jafokash



namoyondasi, teatr va asarlari orqali xalqimizning kundalik muommolarini olib chiquvchi, jahon adabiyotining sara namunalarini xalqimizga yetkazuchi, gazetalar yordamida ommaning fikrlash doirasini kengaytirish kabi vazifalarni yoqqol ko‘rishimiz mumkin. Bebaho merosimiz qadri kun sayin oshib bormoqda. Hozirgi yoki kelajak ta‘limida ham Abdulla Avloniyning xizmatlari beqiyos manba va xazina bo‘lib xizmat qilishda davom etadi. Zero eng katta meros ma‘naviy va tarbiyaviy meros bo‘lib, kelgusi avlodlarning rivoji va yuksalishining asosiy poydevoridir. Ta‘lim esa har qanday xalqning eng birinchi masalasi bo‘lib qolaveradi.

REFERENCES

1. Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, Ma‘rifat, Fidoiylik. Toshkent. Ma‘naviyat 2002-yil. 5-bet.
2. Islom Karimov. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. Ma‘naviyat 2010-yil. 49-bet.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent 2021-yil 311-bet.
4. <https://tafakkur.net/abdulla-avlonyi.haqida>
5. Begali Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, Ma‘rifat, Fidoiylik. Toshkent. Ma‘naviyat 2002-yil 253-bet.
6. Begali Qosimov. Milliy Uyg‘onish: Jasorat, Ma‘rifat, Fidoiylik. Toshkent. Ma‘naviyat 2002-yil 267-bet.
7. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-avlonyi-1878-1934/abdulla-avlonyi-turkiy-guliston-yoxud-axloq>



MUSTAQILLIK YILLARIDA YURTIMIZDAGI MUZEYLAR FAOLYATI: SURXON VOHASI MISOLIDA

Yuldosh Ergash o'g'li Altiboyev

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ORCID-0009-0003-0673-3344

yaltiboyev@gmail.com

Ilmiy rahbar: ChDPU dotsenti, p.f.f.d.(PhD) **S.A.Toshtemirova**

ANNATOTSIYA

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida muzey ishlarining tashkil etilishi va muzeyshunoslik sohasini rivojlantirish borasidagi olib borilgan tadqiqotlar tarixi va bugungi kunda yurtimizda muzeylarga qaratilayotgan e'tibor yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Muzeyshunoslik, moddiy madaniyat, Surxondaryo viloyati o'lkashunoslik muzeyi, muzey ashyolari, Termiz arxeologiya muzeyi, muzey fondlari, muzey zallarini jihozlash.

Har bir millatni ma'naviy jixatdan yuksaltirishda, milliy g'oyani tarkib toptirishda va mamlakat axolisini madaniyat yutuqlaridan baxramand etishda muzeylar g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki muzeylarda xalqimizning o'tmishi, xayot tarzi, urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan moddiy madaniyatimiz namunalari saqlanadi.

Ma'lumki Surxondaryo viloyatida muzey ishlarining tashkil etilishi qariyb bir asrlik tarixga ega bo'lib hisoblanadi. Surxondaryo viloyati o'lkashunoslik muzeyi XX asr boshlarida tashkil etilgan bo'lsa, hozirgi kunda deyarli butun jahonda o'zining noyob eksponatlari bilan mashhur bo'lishga ulgurgan Markaziy Osiyoda yagona Termiz Arxeologiya muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 545-son "Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra 2002 yil 4 aprelda shahrimizning yubeleyi munosabati bilan tashkil etilgan [1, B. 2].

Surxondaryo viloyatida muzey ishlarining tashkil etilishi albatta bu vohamizning o'ziga xos boy o'tmish tarixi qadimgi davrlarga borib taqalishi kabi omillar bilan bog'liqdir. Aynan tarixiy ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, eng qadimgi shaharsozlik madaniyati (Sopollitepa, Jarqo'ton) hamda davlatchilik tarixiga (Baqtriya) ega bo'lgan vohamiz tarixi bugungi kunda dunyo olimlari tomonidan katta qiziqishlar bilan o'rganilib bormoqda [2, B. 9]. Qadimiy madaniyatga ega Termiz tarixi azal-azaldan tarixchi va sayyohlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Shu tufayli



ko'plab tadqiqotchilar Termiz tarixiga doir topilmalardan iborat kolleksiyalarni yaratish ustida ishlarni amalga oshirishgan. Ammo bu kolleksiyalar aynan o'lkamiz hududida emas, balki uzoq o'lkalarda olib ketilgan va shu yerlarda turli ko'rgazmalarda namoyish etilgan.

Ma'lumotlar ko'ra Surxondaryo viloyatidan topilgan hamda boshqa joylarga berib yuborilgan tarixiy buyumlar ancha ko'p miqdorda bo'lib, ularning ro'yhatlari quyidagicha keltirib o'tilgan.

1. Nefrit toshlardan iborat geologiya kolleksiyasi I .V. Mushketov tomonidan Leningrad geologiya muzeyiga topshirilgan.
2. E.F.Kalning Eski Termiz tarixi bilan bog'liq noyob kolleksiyasi (1890-1891 y.y.) Leningrad Davlat Ermitaj muzeyiga topshirilgan.
3. B.N.Kastalskiyning Surxon vohasi tarixi bilan bog'liq boy kolleksiyasi Moskva Sharq madaniyati muzeyiga va Leningraddagi Davlat Ermitajiga berib yuborilgan.
4. 1906 yilda R.Yu.Rojevitsning Buxoro amirligining janubiy-sharqiy hududlariga qilgan safari chog'ida to'plangan noyob buyumlardan iborat kolleksiya rus imperatori huzuridagi Arxeologik komissiyaga topshirilgan.
5. N.D.Logofet tomonidan to'plangan boy kolleksiya namunalari Moskvaga olib ketilgan va 1921 yilda uning o'limidan so'ng yo'qotilib yuborilgan [3, B. 34].

Keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, o'lkamiz tarixi va madaniyatiga oid bo'lgan eng ko'p moddiy -ma'naviy boyliklarimiz uzoq davrlar mobaynida tashib olib ketilgan. Bunday noyob asoriatqalarimiz nafaqat Surxondaryo vohasidan balki, mamlkatimizning yana ko'plab shaharlaridan turli sabab bahonalar bilan olib chiqib ketilgan. Jumladan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra uch mingga yaqin qo'lyozma manbalarimiz 1969 yilda Samarqanddagi masjidlaridan olib ketilgan [4, B. 13]. Bu davrda o'lkamimizga tashrif buyurgan sayyoh olimlar tomonidan o'lkamiz tarixi va madaniyatiga oid yana ko'plab noyob moddiy boyliklarimizni olib ketilganligi tarixiy ma'lumotlarda keltirib o'tiladi. Albatta bu jarayonlar ushbu davrning o'ziga xos siyosiy jarayonlari bilan bog'liq bo'lib holatlar hisoblangan.

Ammo XX asrning boshlariga kelib milliy respublikalar tashkil etilishi hamda madaniy muassasalar faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida aksariyat moddiy ma'naviy boyliklar hamda ma'naviy meroslar o'lka hududlarida saqlab qolinishiga erishilgan. Bu borada Surxondaryo viloyati o'lkashunoslik muzeyining tashkil etilishi voha tarixiga oid ilmiy ma'naviy meroslarimizni saqlab qolishda muhim o'rin tutdi [5, B. 136].

O'lkashunoslik muzeyining tashkil etilishi tarixi hududdagi noyob tarixiy manbalar hamda ularning topilishi jarayonlari bilan



bevosita bog‘liq. Rossiya imperiyasi tomonidan Termiz ishgg‘ol etilgach, Amudaryo bo‘ylab Pattakesarda joylashgan chegara harbiy brigadasi qo‘shinlari tomonidan sim to‘siqlar Qarshi shahridan Termizgacha tortib chiqiladi. Ana shu jarayonda chegara hududlaridan (Qoratepa, Fayoztepa, Chingiztepa, Eski Termiz, Payg‘ambar oroli) ko‘plab noyob tarixiy buyumlar topilib, Termizdagi chegara brigadasiga qarashli zobitlar uyi binosining ikkita xonasida arxeologiya, numizmatika va etnografiyaga doir buyumlar to‘plana boshlaydi [6, B. 37]. Keyinchalik ushbu binoda to‘plangan ashyolar asosida yopiq muzey, 1917 yilga qadar faoliyat ko‘rsatadi. Shu davrlar mobaynida ushbu muzeydagi ashyolarning aksariyat qismi markazga olib ketilgan edi [7, B. 53].

Qadimgi Termiz tarixiga oid ashyolarning ko‘p miqdorda topilishi, endilikda o‘lkashunos olimlar tomonidan turli ko‘rgazmalarni tashkil etilishiga asos bo‘lgan. Bunday ko‘rgazmalar tomoshabinlar tomonidan juda katta qiziqishlar bilan kutib olingan hamda butun jamoatchilikning e‘tiborini torta boshlagan. Shundan so‘ng Termiz shahridagi meteorologiya stansiyasining boshlig‘i bo‘lgan o‘lkashunos olim B.K.Lelongning taklifiga ko‘ra 1928 yil 26 iyunda Termiz o‘lkashunoslik to‘garagini tuzish hamda shaharda muzey tashkil etish g‘oyasi ilgari suriladi [8, B. 178]. Albatta o‘lkashunoslik muzeyini tashkil etish masalalasi Termiz shahri raykom sekretari A.A.Andreyev tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanadi. Shundan so‘ng o‘lkashunoslar to‘garagining raxbari etib B.Lelong tomonidan o‘lkashunoslar to‘garagi dasturi ishlab chiqilib keng miqyosda ishlar olib borilgan. 1932 yillarga kelib o‘lkashunoslik to‘garagi ishlari o‘lkashunos olim G.V.Parfyonov tomonidan olib borilib Sherobod tumani markazida uning tashabbusi bilan tumanlararo ko‘chma ko‘rgazmalar tashkil etiladi. Ushbu ko‘rgazma asosida 1932 yil 7 noyabrda Sherobod tumani o‘lkashunoslik muzeyi tashkil etilib, muzey 1933 yilning 7 sentyabriga qadar o‘z faoliyatini davom ettiradi [9, B. 57]. 1933 yil 13 sentyabrda bu muzey Termiz shahrida tashkil etilib bu borada o‘lkashunos olim G.V.Parfyonov katta hissa qo‘shdi [10, B. 34].

Mahalliy hukumat vakillarining tegishli qarorlariga ko‘ra Termiz shahridagi ko‘plab tashkilotlar muzey tashkil etilganligini qo‘llab-quvvatlab (meteorologiya-stansiya, ipakchilik idorasi, mashina-traktor stansiyasi, madaniy oqartuv uyi va boshqa korxonalar), mahsulotlari va eksponatlaridan namunalar beradilar. Tumanlararo ko‘rgazmalar barcha tumanlarda keng miqyosda tashkil etilib tomoshabinlar e‘tiborini torta boshlaydi.

Endilikda muzey faoliyatini moliyalashtirish hamda ishchi xodimlarning maoshini ta‘minlash borasida G.V.Parfyonov Toshkentda xizmat safarida bo‘lib, 1934 yil 1 yanvardan boshlab Termiz shahrida muzey tashkil etish bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirish



ishlarini poyoniga yetkazadi va Toshkentdan bir qancha noyob eksponatlar ham olib qaytadi. 1934 yil 1 yanvardan boshlab Surxondaryo tumanlararo ko'rgazma rasmiy ravishda Surxondaryo tumanlararo davlat muzeyi deb atala boshlandi. Termiz shahar kengashining 1934 yil 2 yanvardagi buyrug'iga asosan Gavril Vasilevich Parfyonov muzey direktori etib tayinlandi [11, B. 78].

Dastlab 4 kishidan iborat muzey xodimlari 1934 yil 1 maydan muzey eshiklarini tomoshabinlarga ochib berdi. Gavriil Vasilevich Parfyonov - muzey direktori, Daydar Shixaliyev -muzey qorovuli, Georgiy Nikolayevich Maksimov - ilmiy texnik xodim, Yevdokiya Padchalenova –qorovul sifatida ish boshlashgan. Muzey xodimlari va maktab o'quvchilariining faol ishtirokida 1934 yil may oyining oxirida muzey hovlisida noyob hayvon turlaridan iborat tirik burchak tashkil etildi. 1934 yilning 7 iyuniga kelib muzeyning tirik burchagida 41 ta hayvon turlarisaqlanar edi. Muzeyning eksponatlar bilan tobora to'lib borishi, yangi bino qurish zarurligi inobatga olinib, Termiz shahar ijroqumi muzeyga yangi bino qurishni 1935 yil rejasiga kiritiladi. Shuningdek, muzey xodimlarining ish haqlari Xalq ta'limi xodimlarining ish haqlari bilan tenglashtiriladi. O'lkashunos olimlarning faol tarzidagi sa'iy-harakatlari bilan muzey eksponatlari soni ham ortib borib, 1933 yilda muzey fondida atigi 111 ta eksponat bo'lgan bo'lsa, 1936 yilga kelib ularning soni 366 ta, 1971 yilda 48798 ta, 1983 yilda 64 mingta, 1993 yilda esa 72 mingtaga ortganligini ko'rishimiz mumkin [12, B. 112].

Ilmiy ahamiyatga boy tarixiy eksponatlar ko'payishi albatta muzeyga tashrif buyuruvchi tomoshabinlar soni yildan-yilga oshirib bordi. 1933 yilda muzeyga 6834 kishi tashrif buyurgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1950 yilda 23000 kishini, 1992 yilda esa 80132 kishini tashkil qildi. Tomoshabinlar uchun 1933 yilda 84 marta ekskursiyalar uyushtirilgan bo'lsa, 1950 yilda 316 marta, 1970 yilda 542 marta, 1992 yilda esa 1510 martaga ortgan [13, B. 178].

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, muzey xodimlarining samarali faoliyatlari hamda fidoyi o'lkashunos olimlarning faol ilmiy tadqiqotlari tufayli bu ajoyib maskan tomoshabinlar e'tiboriga tushib, o'lka tarixini o'rganishda muhim yutuqlarga erishdi. Bugunki kunga kelib Surxondaryo viloyati o'lkashunoslik muzeyi zamonaviy binoda bir necha yuz mingdan ortiq eksponatlari bilan tomoshabinlarga faol xizmat ko'rsatmoqda. Uzoq davrlar mobaynida to'plangan o'lka tarixiga oid noyob ashyolar bugungi kunda yoshlarimizning ajdodlar merosidan bahramand bo'lib, ulardan ma'naviy ozuqa olgan holda barkamol vatanparvar shijoatli vatan fidoyilari bo'lib ulg'ayishida muhim o'rin tutib kelmoqda.



REFERENCES

1. Халқ сўзи. 1999 йил 28.декабрь №47-358
2. А.Асқаров Жарқўтон қадимий шаҳар.Т. 2001 б 9
3. Ботиров.И Сурхондарё вилояти ўлкашунослик музейи тарихи. Ўз Рес. ФА.“Фан” нашриёти. Т.2011.Б 34
4. Самарқанд цивилизациялар чорраҳасида Фан ва Турмуш журнали 2007 йил 4-сон Б 13.
5. Турсунов С.Н, Қобилов Э.О. ва бошқалар. Сурхондарё тарихи.– Т.: Шарқ, 2004Б 136.
6. Краеведения Сурхандаръи . отвс.редактор Э.В.Ртвеладзе. Т. Наука 1989.г с37
7. Сафаров Ш.Термиз ва Термизийлар Термиз «Жайхун», 1993 й. Б 53.
8. Турсунов.С.Н. Холмуминов.Х. Тарихий ўлкашунослик. Ўқув кўллама. Т. Янги аср авлоди.2021 Б 178
9. Ботиров.И Сурхондарё вилояти ўлкашунослик музейи тарихи. Ўз Рес. ФА.“Фан” нашриёти. Т.2011.Б 57
10. Ботиров.И Сурхондарё вилояти ўлкашунослик музейи тарихи. Ўз Рес. ФА.“Фан” нашриёти. Т.2011.Б 34
11. Ботиров.И Сурхондарё вилояти ўлкашунослик музейи тарихи. Ўз Рес. ФА.“Фан” нашриёти. Т.2011.Б 78
12. Краеведения Сурхандаръи . отвс.редактор Э.В.Ртвеладзе. Т. Наука 1989.г с 112.
13. Турсунов.С.Н. Холмуминов.Х. Тарихий ўлкашунослик. Ўқув муллама. Т. Янги аср авлоди.2021. Б -178.



QANG‘ DAVLATI TARIXINING XITOIY MANBALARIDA YORITILISHI

O‘g‘iloy Davron qizi Ozodova

Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ozodovaogiloy41@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek davlatchiligida muhim o‘rin tutgan Qang‘ davlati tarixi yoritishda xitoy manbalarining o‘rni manbalar asosida yoritilgan. Qang‘ davlatining geografik o‘rni, poytaxti, hukdorlarning qarorgohlari va mahalliy aholining turmush tarzi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xitoy solnomalari asosida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qang‘yuy, Bityan, O‘tror, “Syan Xan shu”, kengash, yuechji, Shoshtepa

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе источников освещена роль китайских источников в освещении истории государства Кан, сыгравшего важную роль в узбекской государственности. Сведения о географическом положении государства Кан, его столице, резиденциях правителей, образе жизни местного населения даны на основе китайских летописей.

Ключевые слова: Кангю, Битян, Отрор, «Сянь Хань Шу», Совет, Юэчжи, Шошстепа.

ABSTRACT

In this article, the role of Chinese sources in covering the history of the Kang state, which played an important role in the Uzbek statehood, is highlighted based on the sources. Information about the geographical location of the Kang state, its capital, the residences of the rulers, and the lifestyle of the local population is given on the basis of Chinese chronicles.

Keywords: Kangyu, Bityan, Otror, "Xian Han Shu", Council, Yuechji, Shoshstepa

KIRISH

Xitoy manbalari deganda, saroy tarixchilari tomonidan imperatorlari madh etilgan tarixiy asarlar ko‘z oldimizga keladi. Biroq, bu asarlarda Xitoyga qo‘shni bo‘lgan davlatlar, ularning geografik joylashuvi, shaharlari to‘g‘risida ham ko‘pgina ma‘lumotlar uchraydi.



Xususan, bu manbalarda O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari to'g'risida ham ma'lumotlar o'rin olgan. Tan olishimiz kerakki, qadimgi davrlar, ayniqsa, eramizdan avvalgi davrdagi tariximiz bizga chet el tarixchilarining manbalari asosida yetib kelgan. Ungacha bizda yoki tarixnavislik bo'lmagan, yoki bor manbalar ham yo'q qilib yuborilgan. Qadimiy o'troq madaniyatimiz, o'ziga xos antik davlatlarimiz, an'analarimiz bo'lganligi hech kim inkor qila olmaydi. Ammo bizning mahalliy tarixchilarimizning aynan yozgan asarlari ham ayni damda mavjud emasligi inkor qilib bo'lmas haqiqat. Biz qadimgi tarixni fors, yunon-rim va eng asosiysi xitoy manbalari orqali o'rganamiz.

Jumladan, qadimgi davr davlatlari bo'yicha tadqiq etuvchi olimlar xitoy manbalariga murojaat qilishga majbur bo'ladi. O'zbekiston hududida eramizdan avvalgi davrda mavjud bo'lgan va o'zbek davlatchiligiga ulkan hissa qo'shgan davlatlardan biri - Qang' davlati to'g'risida ham xitoy manbalari ancha mufassal ma'lumot bergan. Qadimgi Xitoy manbalarida Qang' davlati mavjud bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar mil. Av.v. II asrga to'g'ri keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qang' davlati bo'yicha tadqiqot ishi olib brogan tarixchilar, manbashunos olimlar talaygina. Ular orasida Karim Shoniyozov[1], Ablat Xo'jayev[2], B.Axmedov [3] kabi manbashunos va tarixshunos olimlarning ishlari anchayin e'tiborga molik.

Ular bevosita tadqiqot jarayonlarida xitoy solnomalaridan foydalanishgan. Jumladan, qadimgi xitoy solnomasi "Syan Xan shu" da Qang' va qang'lilar haqida ham so'z boradi. "Syan Xan shu" ("Birinchi Xan sulolasi tarixi") asari yirik mansabdor va tarixshunos oilasida tug'ilgan Ban Gu "Birinchi Xan sulolasi tarixi" asari muallifidir. Asarda O'rta Osiyo (qang'li, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkiston qadim tarixi xususida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Xan shu ning 95-bobida O'zbekiston (ayniqsa, qang'li, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqi va uning hayoti haqida ko'p muhim ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin [4].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Akademik Karim Shoniyozov Qang' davlatining paydo bo'lgan davri xususida quyidagicha ma'lumot beradi:

Qang' davlati solnomalarda aytilgan davrdan ancha oldinroq mavjud bo'lgan. So'zsis Qang' davlati O'rta Osiyoga bosib kelgan makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari bilan yunon-makedoniyaliklardan tashkil topgan salavkiylar sulolasi (miloddan avvalgi 312–250-yillar)



bilan uzluksiz ravishda olib borilgan kurashlar natijasida taxminan miloddan avvalgi III asr boshida vujudga kelgan [5].

Demak, Qang' davlati Aleksandrning o'limidan so'ng boshlangan boshboshdqlikdan so'ng mustaqillik uchun harakat boshlagan va mustaqil davlat sifatida shakllangan. Qang' davlatining o'rni ko'pchilik olimlarning fikricha, zamonaviy Toshkent vohasiga to'g'ri keladi. Sharqdan Davan davlati bilan chegaradosh bo'lib, u bilan savdo-iqtisodiy va diplomatik aloqalarni olib borgan.

Katta Xan sulolasi tarixida "qang'lilar mamlakati podshosining turar joyi Loyuyenidagi Bityan shahrida" deb ma'lumot beriladi. Boshqa tarixiy manbalarda Loyuyeni nomi uchramaydi. Binobarin, uning qayerda joylashganligi aniqlanmagan. K. Shoniyozov Bityan shahrini Toshkent vohasida joylashgan, deb hisoblaydi. Chunki tarixiy manbalarda aytilishicha, Yaksart-Sirdaryo bo'yida qadimgi Kanqa - Kanka shahri xarobalari joylashgan [6].

Tarixchi olimlarning fikricha, Qang'yuy yoki Bityan shahri Sirdaryoning o'rta qismida joylashgan. Bu shahar haqidagi ma'lumotlarning faqat xitoychadagi manbalari bizgacha yetib kelgan xolos. Yunon, Eron va Hind manbalarida ham Qang' davlati haqida ma'lumotlar o'sha davrlarda yozilgan bo'lishi mumkin, lekin bu manbalar bizning davrgacha yetib kelmagan.

Katta Xan sulolasi tarixida "Qang' podshosining yozgi qarorgohi Loyuyenidan yetti kun yo'l yurib boriladigan yerda joylashgan",- degan ma'lumot beriladi. Shn-gu solnomalarida ta'kidlanishicha, "Qang' hokimi qishda (sovuqda), yozda (issiq paytlarda) bir yerda yashamas edi" Bu bilan bu fasllarda ularning turar joylari boshqa boshqa yerda bo'lish uqtirib o'tiladi [7].

Qang' davlatining qishki poytaxti Shoshtepa xarobalaridan joylashganligi haqida ma'lumotlar bor. Yozgi poytaxti haqida turlicha ixtiloflar bor. Ayrim tarixchilarning fikriga ko'ra yozgi poytaxt O'tror shahri o'rnida bo'lgan bo'lsa, ayrimlar Toshkent vohasining o'zida Ohangaron yoki Oqqo'rg'on tumanlari o'rnida joylashgan deb hisoblashadi. Qang' podsholari va ularga yaqin bo'lgan kishilar nihoyatda boy chorvadorlar bo'lishgan. Ular bahor kelishi bilan yaqinlari, qarindosh-urug'lari bilan birgalikda yozgi qarorgohda, ya'ni O'troga borib yozni o'tkazishgan. Kuzda esa qishlovni o'tkazish uchun Qang'ga qaytib ketishgan.

Katta Xan sulolasi tarixida (mil.avv. 202-mil. 25 yy) Qang' podshosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi haqida ma'lumot beriladi. Bundan xulosa chiqargan tadqiqotchilar o'sha davrda tashkil topgan Qang' davlatida kengash muhim rol o'ynaganligini, davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganliklarini hamda ularning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaydilar[8].



Qang' davlati bilan deyarli bir vaqtda vujudga kelgan Davan davlatida ham hukmdorning yakka hokimiyati oqsoqollar kengashi bilan maslahatlashib ish tutganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Demak, bundan shuni xulosa qilish mumkinki, miloddan avvalgi III asrda O'rta Osiyo hududida joylashgan davlatlarda kengashning davlat boshqaruv tizimidagi o'rni yuqori bo'lgan.

Manbalarda Qang' davlati miloddan avvalgi II asrning oxiri va I asrning boshlarida ancha ravnaq topganligi va u Xitoyga nisbatan mustaqil siyosat yurgizganligi qayd etiladi. Qang'uy, hatto Xitoy bilan Farg'ona o'rtasidagi mojarolariga ham aralashadi. Miloddan avvalgi II asrning oxirlarida Farg'ona hududidagi Davan davlatiga Xitoy bir necha marotaba harbiy yurishlari amalga oshirdi. Davan davlati esa g'arbiy chegaradosh Qang' davlatida harbiy ko'mak ham so'raganligi manbalardan bizga ma'lum.

Xitoy qo'shinining Davanga ikkinchi marta yurishidan maqsad, bu viloyatning markaziy shahri bo'lgan Guyshanni (Kosonni) zabt etish, so'ngra boshqa shahar va qishloqlarni egallab, g'arbiga Sug'diyonaga yo'l ochish edi. Bosqinchilarning Guyshanga yaqinlashib kelayotganligidan xabar topgan guyshanliklar qang'arlarga chopar yuborib, ularni voqeadan xabardor qiladilar va ulardan yordam so'raydilar [9].

Demak qadimda O'rta Osiyoda yonma-yon paydo bo'lgan 2 davlat Qang' va Davan davlatlari bir-biri bilan yaxshi diplomatik aloqalarni o'natgan hamda o'rni kelganida tashqi dushmanga qarshi ham bir safda turishgan. Qang' davlati hukmron doiralari o'sha davrda Xitoyda hukmronlik qilayotgan Xan imperiyasining bosqinchilik siyosatiga qarshi chiqib, ularni o'z chegarasiga, hatto unga yaqin bo'lgan Farg'ona va Qashg'ar yerlariga keltirmaslikka harakat qilishgan.

Xitoy tarixchisi Sima Syan bu elat haqida "ular urf-odatlari bo'yicha yuechjilarga o'xshab ketadi", deb yozgan. Xitoyning G'arbiy o'lkalari noibi imperatorga yuborgan ma'lumotlarida, "Qang'arlar iftixori zo'r, qo'pol xalq, bizning elchilarimiz oldida tiz cho'kib qulluq qilishga unamaydilar, biz tomonimizdan yuborilgan elchilarni usun elchilaridan ham pastga o'tqazadilar. Ularning (usunlarning) knyaz va oqsoqollariga taomni bizning oqsoqollarimizga qaraganda oldinroq beradilar", deb bu elatning mag'rurligini yozib qoldirgan [10].

XULOSA

Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston tarixiga bevosita bog'liq bo'lgan Xitoy xalqining qadimgi yozma manbalarini chuqur va atroflicha o'rganish, ulardagi ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish ham muhim ahamiyatga ega. Xitoy manbalarida bo'lib o'tgan voqealarning vaqti va o'rni aniq ko'rsatiladi, bir-biriga qarshi turgan qo'shnlarning umumiy soni aniq ko'rsatiladi. Qadimiy O'zbekistonning uzoq o'tmishdagi



ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda quyidagi xitoy manbalari muhim rol o'ynaydi.

E'tiborli jihati shundaki, Xitoy tarixchilari nafaqat davlatning hududiy chegaralari, geografik o'rni to'g'risida, balki hukmron doira va oddiy aholiga ham ta'rif berib, yozma manbalarda yozib qoldirgan. Ehtimol o'zidan keyin keladigan sulola yoxud hukmdorga xalqlar to'g'risida ma'lumot berib, u yoki bu davlat bilan qanday munosabatda bo'lishi kerakligini uqtirmoqchi bo'lgandir. Nima bo'lgan taqdirda ham, Qang' davlati va uning davlatchiligi tarixi to'g'risida Xitoy manbalari beradigan ma'lumotlarning o'rni beqiyosdir.

REFERENCES

1. Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. – Т.: “Фан”, 1990
2. Марказий Осиё тарихи Хитой манбаларида (қадимий ҳамда илк ўрта аср ёзма ёдгорликларидан таржималар ва тадқиқотлар).Т.:2016
3. Ахмедов Б. “Ўзбекистон тарихи манбалари” Т.:2001
4. Aziza Izzatova XITOIY MANBALARIDA O'RTA OSIYO HAQIDAGI MA'LUMOTLARNING AHAMIYATI // Academic research in educational sciences. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xitoy-manbalarida-o-rta-osiyo-haqidagi-ma-lumotlarning-ahamiyati>.
5. Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. – Т.: “Фан”, 1990, В.27.
6. В.Ј.Ешов, А.А.Одилон —О_zbekiston tarixi|| I – jild Т.:2013.б.174
7. В.Ј.Ешов, А.А.Одилон —О_zbekiston tarixi|| I – jild Т.:2013.б.173
8. Aziza Izzatova XITOIY MANBALARIDA O'RTA OSIYO HAQIDAGI MA'LUMOTLARNING AHAMIYATI // Academic research in educational sciences. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xitoy-manbalarida-o-rta-osiyo-haqidagi-ma-lumotlarning-ahamiyati>
9. Shamsutdinov R, Karimov SH. Vatan tarixi Т.: “Sharq”,2010. В.73
10. Ergashev Q, Hamidov H O'zbekiston tarixi. Т.:2015. В.76



